



*2025- yil yanvar oyi uchun
dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

2025- yil yanvar oyida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 406,0 mln. AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,0 mln. AQSH dollariga yoki 3,3 % ga ko'paydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar 2025 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2025- y.: **406,0** 103,3 %

(2024- y.: 393,0)



Saldo

2025- y.: **-149,0** (2024- y.: - 161,8)




Eksport

2025- y.: **128,5** 111,2 %

(2024- y.: **115,6**)


TSA'dagi ulushi, % da



Import

2025- y.: **277,5** 100,0 %

(2024- y.: 277,4)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 128,5 mln. AQSH dollariga (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 11,2 % ga ko‘paydi) va import hajmi 277,5 mln. AQSH dollariga (o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishsiz) yetdi. Hisobot davrida -149,0 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.




TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2025- yil yanvar mln. AQSH dollari)

XXR TSA – 129,9 Eksport: 32,3 Import: 97,6  32,0 %	Rossiya TSA – 102,3 Eksport: 44,5 Import: 57,8  25,2 %	Qozog‘iston TSA – 46,8 Eksport: 6,4 Import: 40,4  11,5 %	Turkiya TSA – 25,5 Eksport: 14,9 Import: 10,6  6,3 %	Belorussiya TSA – 8,0 Eksport: 1,5 Import: 6,5  2,0 %
Germaniya TSA – 7,8 Eksport: 0,8 Import: 7,0  1,9 %	Afg‘oniston TSA – 7,1 Eksport: 7,1 Import: 0,0  2,0 %	Italiya TSA – 5,6 Eksport: 1,8 Import: 3,8  1,4 %	Tojikiston TSA – 4,8 Eksport: 3,7 Import: 1,1  1,2 %	O‘rg‘iz Respublikasi TSA – 3,3 Eksport: 1,8 Import: 1,5  0,8 %




YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (2025- yil yanvar, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2025- y.	2024- y.
XXR	129,9	124,1
 Eksport	32,3	33,6
Import	97,6	90,5
Rossiya	102,3	96,0
 Eksport	45,5	41,3
Import	57,8	54,7
Qozog'iston	46,8	42,0
 Eksport	6,4	5,6
Import	40,4	36,4
Turkiya	25,5	25,6
 Eksport	14,9	11,3
Import	10,6	14,3
Braziliya	14,8	0,1
 Eksport	0,0	0,0
Import	14,8	0,1
Belorussiya	8,0	9,4
 Eksport	1,5	1,0
Import	6,5	8,4
Germaniya	7,8	11,4
 Eksport	0,8	0,2
Import	7,0	11,2
Italiya	5,6	27,8
 Eksport	1,8	1,6
Import	3,8	26,2
Shveysariya	4,8	1,3
 Eksport	3,7	0,0
Import	1,1	1,3
Tojikiston	0,6	4,6
 Eksport	0,2	3,1
Import	0,4	1,5




HUDUDLAR KESIMIDA **TASHQI SAVDO AYLANMASI** *(2025- yil yanvar, mln. AQSH doll.)**





TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2025- yil yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi)



2025- yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 42,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning mos davriga nisbatan 7,3 % ga ko‘paydi.



Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning mos davriga nisbatan 0,6 % ga ko‘paydi va jami TSAdagi ulushi 57,8 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2025- yil yanvar oyida 171,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 60,2 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 111,1 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2025- yil yanvar, ulushi % da)

Rossiya – 25,2



Qozog'iston – 11,5



Belorussiya – 2,0



Tojikiston – 1,2



Qirg'iz
Respublikasi – 0,8



Turkmaniston – 0,6



Ukraina – 0,5



Ozarbajjon – 0,3



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (25,2 %), Qozog'iston (11,5 %) hamda Belorussiya (2,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.






Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 405 taga yetdi va ular tomonidan 128,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2024- yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2025- yil yanvar ulushi % da)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar oyida, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami eksport	115,6	128,5	93,8	111,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,8	18,0	104,9	113,9	13,6	14,0
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,4	94,5	152,2	0,2	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,8	3,7	2,1 m.	95,4	3,6	2,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,3	0,6	10,8 m.	47,1	1,2	0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	1,6	-	190,9	0,7	1,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5,4	8,0	83,9	148,3	4,8	6,2
Sanoat tovarlari	61,4	71,1	76,1	115,6	52,9	55,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	6,0	7,9	2,6 m.	131,3	5,2	6,1
Turli xil tayyor buyumlar	20,5	15,7	126,0	77,0	17,6	12,2
Xizmatlar	0,3	1,5	132,7	6,0 m.	0,2	1,3

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,7 % ni tashkil etib, ulardan yuqori ulush sanoat tovarlari (55,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (14,0 %) va turli xil tayyor buyumlar (12,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(2025- yil yanvar, mln.
AQSH dollari)

2025- yilning yanvar oyida MDH mamlakatlariga eksport ulushi 46,9 % ni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % ga kamaydi.

■ MDH davlatlar
■ Boshqa davlatlar



2025- yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Turkiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 85,9 % ni tashkil etdi.




TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar, % da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2025- yil yanvar, mln. AQSH doll.)*





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2025- yil yanvar oyida 7,4 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2,4 mln. AQSH dollariga teng 4,5 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 1,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi 1,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2025- yil yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 4,3 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2025- yil yanvar, miqdori va hajmi)



Meva va
rezavorlar
1,2 ming tonna
1,9 mln. AQSH
dollari

Uzum
1,6 ming tonna
1,2 mln.
AQSH dollari

Yeryon-g‘oqlar
0,1 ming tonna
0,1 mln. AQSH
dollari

Sabzavotlar
4,5 ming tonna
2,4 mln. AQSH
dollari



TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI




2025- yilning yanvar oyida import hajmi 277,5 mln. AQSH dollarini va 2024- yilning mos davriga nisbatan 100,0 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (27,8 %), sanoat tovarlari (18,4 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga oʻxshash mahsulotlar (12,1 %) hisobiga toʻgʻri keldi.



XSST BOʻYICHA IMPORT TARKIBI

(2025- yil yanvar, ulushi % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga koʻra, 2025- yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 mln. AQSH dollariga koʻpaydi va 277,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,2 mln. AQSH dollariga yetdi.



TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar oyida, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami import	277,4	277,5	90,2	100,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	48,7	65,9	82,7	135,2	17,6	23,7
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,2	55,7	2,6 m.	0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	18	18,9	26,1	104,8	6,5	6,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	21,9	11,7	120,8	53,5	7,8	4,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	7,4	12,8	84,3	172,6	2,7	4,6
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	23,9	33,9	82,1	141,8	8,6	12,2
Sanoat tovarlari	34	50,9	105,4	149,8	12,3	18,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	116,1	77,1	135,4	66,4	41,9	27,8
Turli xil tayyor buyumlar	5,2	5,9	95,2	115,1	1,9	2,1
Boshqa tovarlar	2	0	0	0	0,7	0
Xizmatlar	0,1	0,2	55,8	123,5	0	0,1

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.



2025- yil yanvar natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 40,1 % ni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (2025- yil yanvar, mln. AQSH dollari)



2025- yil yanvar oyida yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Italiya, Belorussiya va Germaniya) jami importning 78,5 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar, % da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2025- yil yanvar, mln. AQSH doll.)

